Toshkentda suv sifatini yaxshilash Loyihasi

Davlat:	O'zbekiston
Loyiha tartib raqami:	49277
Biznes faoliyat turi:	Infratuzilma, Yevrosiyo
E'lon turi:	Davlat
Ekologik toifasi:	B
Tasdiqlash sanasi:	19 sentyabr, 2018 yil
Qaysi boshqichdaligi:	Imzolangan
Ingliz tilida chop etilgan sana:	22 oktyabr, 2021 yil

Loyiha mazmuni

Bank, “Toshkent Shahar Suv Ta’minoti” MChJ (ilgari "SuvSoz" Davlat unitar korxonasi ("Kompaniya") ning Ustuvor investitsiya dasturi ("UID") ni moliyalashtirish uchun Kompaniyani qayta kreditlash va/yoki unga berish maqsadida O'zbekiston Respublikasiga ("O’zR") 30 million AQSH dollari (25 million yevro) ga qadar bo’lgan miqdorda suveren qarz beradi. UID, Toshkent shahridagi suv va oqava suv infratuzilmasiga oqava suv kollektorini qurish, nasoslar, venbtil va bosim regulyatorlarini o'rnatish ("Loyiha") kabi investitsiyalarni o'z ichiga oladi.

Loyiha maqsadi

Loyiha Toshkentdagi oqava suv va ichimlik suvi infratuzilmasini ko'plab ekologik foyda keltiradigan qayta ta'mirlash va kengaytirishni o'z ichiga oladi, jumladan: (i) ichimlik va oqava suv tarmoqlariga ulangan kishilar soni 280 ming va 390 ming nafarga ortishi; (ii) oqava suv yo'qotishlarini kamaytirish va (iii) energiyani tejash.

O'tish davri ta'siri

Yaxshi

O'tish davri ta'sirining manbalari quyidagilardir: 1) "Yashil". Loyiha doirasida, oqava va ichimlik suv tarmoqlariga ulangan kishilar sonini ko'paytirish, tozalangan oqava suv hajmini oshirish, suv yo'qotishlarni kamaytirish va tizimda yaxshilangan nasoslar rejimlari yordamida energiyani tejash va suvning
yo'qotilishi kamaytirishga erishilishi kutilmoqda. Shu sababli, Loyiha ijobiy ekologik faoliyat sifatida baholanadi.
2) Mustahkam. Loyihaning e'tibori Kompaniyaning xarajatlarini tiklash va uning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan moliyaviy va operatsion takomillashtirish masalalariga qaratilgan.

Mijoz haqida ma'lumot

O'ZBEKISTON, SUVEREN

YTTBning moliyaviy mablag'i

30 000 000,00 AQSH dollari

Loyihaning umumiy qiymati
30 000 000,00 AQSH dollari

Ekologik va ijtimoiiy xulosa
Loyiha YTTBning 2014 yilgi Ekologik va ijtimoiy siyosatiga muvofiq "B" tasnifiga kiritildi. Loyiha bo'yicha tavsiya etilgan Ustuvor investitsiyalar dasturi (UID) uchun Ekologik va ijtimoiy ahamiyatga ega choralar (ESDD) Infratuzilmaviy loyiha tayyorlash mexanizmi (ILTM) doirasida jalb qilingan mustaqil maslahatchilar tomonidan Texnik-iqtisodiy asoslash (TIA)ning bir qismi sifatida amalga oshirildi. U joriy amaliyotlarni ko'rib chiqish, Loyihaning potentsial ekologik va ijtimoiy ta'sirini baholash va Kompaniyaning amaldagi ekologik va ijtimoiy qoidalari va boshqaruv imkoniyatlarini ko'rib chiqish kabilarni o'z ichiga olgan. UIDning barcha komponentlari kelgusida mahalliy ruxsat berish tartib-qoidalari va Atrof-muhitnga bo'lgan ta'sirni baholash (OVOS) qonunlariga bo'ysunadi. Loyiha uchun Atrof-muhit va ijtimoiy tadbirlar rejasi (ESAP) ishlab chiqilgan va u Kengash tomonidan tasdiqlanishidan oldin alohida Loyiha kelishuvi doirasida Kompaniya bilan kelishib olinadi. Shuningdek, Manfaatdor tomonlarni jalb qilish rejasi (SEP) va texnik bo'lmagan xulosa (NTS) ham ishlab chiqilgan va e'lon qilinadi.

UID doirasida amalga oshiriladigan investitsiyalar yig'ish hajmlarini oshiradi va Toshkentning yangi bir qismini tarmoqqa ulaydi. Hozirgi paytda oqava suvlar uchta OSTKda, ya'ni Salar, Bozsu va Bektimirda yig'iladi va tozalanadi. OSTKlar yaqin vaqt ichida ta'mirlanib, bu ularning ahlatlanishni kamaytirish darajasini sezilarli darajada oshirdi, ammo ular ozuqa moddalarini yo'qotish uchun jihozlashmadi. ESDD natijalari shuni ko'rsatadiki, barcha OSTKlar oqava suv sifati milliy me'yoriy talablar va Yevropa Ittifoqining oqava suvni tozalash borasidagi ko'rsatmasi talablariga tozalangan oqava suv sifati va uch-bosqichli tozalash talablari nuqtai nazaridan javob bermaydi. Milliy va Yevropa Ittifoqi ko'rsatmasi standartlariga rioya qilmaslikning asosiy sababi tozalanmagan sanoat oqava suvlarining katta hajmda OSTKlarga etkazib berilishidadir (Salar va Bozsuga keladigan taxminan 30-50%, Bektemirga esa 80% suv sanoatdan kelib chiquvchi oqava suvlardir). Garchi suv havzasi (Chirchiq daryosi) Shahar oqava suvlarini tozalash ko'rstamasiga ko'ra ta'sir ostida bo'lmasa-da, qabul qiluvchi suv havzalarini ta'sir ostida deb hisoblash tavsiya etiladi, chunki suvlar mahalliy va qishloq xo'jalik maqsadlarida qayta ishlatish ehtimoli yuqori bo'lgan sug'orish kanallari va daryo orqali tarqatiladi. Shuning uchun, ehtiyotkorlik yondashuvidan so'ng, uchchala OSTK da ham Yevropa Ittifoqining nozik maydonlar uchun mo'ljallangan standartlarga erishilishi lozim, deb hulosa qilindi. Milliy Ekologiya qo'mitasi va Loyiha kompaniyasi boshchiligida davom etayotgan dastur sanoat chiqindilaridan oldingi tozalashni amalga oshirish bilan bog'liq. Bu yaqin kelajakda shahar tozalash inshootlarining ish faoliyatini sezilarli darajada yaxshilaydi. OSTKlarga qaratilgan investitsiyalarga ta'lluqli UIDda hech qanday chora ko'zda tutilmasa ham, Uzoq muddatli investitsiya strategiyasining OSTKlar faoliyatining Ko'rsatmaga muvofiq amalga oshirila boshlashi kutilmoqda.

UIDni amalga oshirish bilan bog'liq salbiy ekologik va ijtimoiy ta'sirlari chegaralangan, mahalliy va vaqtinchalik tusga ega bo'ladi va samarali qurilish amaliyotlariga rioya qilish yo'li bilan ularning oldini olish yoki kamaytirish mumkin. Qoraqamish kollektorini qurish bilan bog'liq vaqtinchalik iqtisodiy ta'sir Loyiha uchun tayyorlangan Faoliyatni qayta tiklash tizimi doirasida baholanadi va boshqariladi. Oldinga qo'yilgan mahalliy atrof-muhitnga bo'lgan ta'sirni baholash natijalari va tavsiya etilgan ta'sirni kamaytirish choralari Loyihaning Ekologik va ijtimoiy boshqaruv rejasiga kiritilishi kerak.

Suv va oqava suv tizimlariga oid Yevropa Ittifoqining ekologik standartlariga to'liq rioya qilish uchun 266 mln AQSH dollaridna ko'proq bo'lgan qo'shimcha uzoq muddatli investitsiyalar talab qilinadi. Shu sababli, cheklangan mablag'lar va moliyaviy resurslardan kelib chiqadigan cheklovlar tufayli, Yevropa Ittifoqining ichimlik suvi sifati va oqava suvlarni tozalash va tushirish standartlariga nisbatan YTTBning Ekologik va ijtimoiy nizomtalablaridan chetga chiqish masalasi o'rtaga chiqadi. Yevropa Ittifoqi me'yorlaridan chetga chiqish natijasida o'rtaga chiquvchi kamchiliklarning inson sog'lig'iga ta'sirining ahamiyati, UIDni amalga oshirishning mahalliy aholiga yanada ishonchli, samarali tarzda sifatli suv bilan ta'minlash, shuningdek, oqava suvlarni boshqarishni yaxshilashga imkon yaratish borasidagi sezilarli afzalliklari bilan taqqoslanganda juda kichik deb baholanadi. Kutilayotgan natijalar quyidagilarni o'z ichiga oladi: Yunusobod va Olmazor tumanlarining sanitariya sharoitlari sezilarli yaxshilanadi; suv bilan bog'liq kasalliklarning xavfini kamaytiradi va atrof muhitga bevosita chiqarilgan ifloslanishning umumiy yukini kamaytiradi; shuningdek ishchilar va subpudratchilarning ish samaradorligi, salomatligi va xavfsizligi yaxshilanadi.

ESAP Kompaniyadan YTTBning PR-lariga mos keladigan bir qator takomillashtirishlarni amalga oshirishni talab qiladi. ESAP doirasidagi asosiy tadbirlarga quyidagilar kiradi: EMX va kadrlar siyosati va amaliyoti yaxshilanadi; ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimini joriy etish; pudratchilarning Ekologiya va mehnat xavsizligi va mehnatni boshqarish dasturi; suv ta'minoti va oqava suvlarning sifati monitoringi yaxshilanadi; yoqimsiz hid darajasini baholash va boshqarish rejasi; quruq loy paydo bo'lishini boshqarish rejasi; pudratchilar uchun mehnat xavfsizligini ta'minlash rejasini ishlab chiqish; va Manfaatdor tomonlarni jalb qilish rejalarini aholining shikoyatlarini xal qilish mexanizmi bilan birgalikda amalga oshirish.
Bank, Kompaniyaning yillik Ekologik va ijtimoiy hisobotlarini ko'rib chiqish va kerak bo'lganda monitoring tashriflarini amalga oshirish orqali Loyiha va ESAPning amalga oshirilishini hamda kompaniyaning ekologik va ijtimoiy sohalaridagi faoliyatini nazorat qiladi.

Texnik hamkorlik

Imzolashdan oldin: • TH 1: Texnik, moliyaviy, ekologik va ijtimoiy ahamiyatga ega choralar. Vazifa qiymati 344 ming yevroga teng bo'lib, u Infratuzilmaviy loyiha tayyorlash mexanizmi (IPPF) doirasida moliyalashtirilgan edi.
Imzo qo'yilgandan so'ng: • TH 2: Kompaniyani tashkiliy, operatsion va moliyaviy imkoniyatlarini yaxshilash uchun Korporativ rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash choralari. Belgilangan xarajatlar 200 ming yevro atrofida baholanmoqda, va ular xalqaro donor yoki YTTB Hissadorlarining maxsus jamg'armasi tomonidan moliyalashtiriladi.

Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma'lumot

Loyihani amalga oshirish bo’limi
po.ebrd@uzsuv.uz
+99855-503-12-55
+99855-503-12-55
http://uzsuv.uz
Niyozbek Yuli ko'chasi, 1-uy, Toshkent shahri, 100035, O'zbekiston Respublikasi

O‘tish davri nima

O‘tish davri ta’sirini baholash bo‘yicha YTTB yondashuvi haqidagi qo‘shimcha ma’lumotni mana bu havoladan olishingiz mumkin.

Loyihalarda ishtirok etish uchun imkoniyatlar

Loyihada yoki xaridlarda ishtirok etish uchun mijoz kompaniyaga murojaat qiling.

YTTB bilan (xaridlarga oid bo‘lmagan masalalarda) hamkorlik qilish uchun quyidagi telefon yoki elektron pochta orqali bog‘laning:
Tel: +44 20 7338 7168
E-manzil: projectenquiries@ebrd.com

Davlat sektoridagi loyihalar uchun YTTB xaridlari sahifasiga o‘ting:
Tel: +44 20 7338 6794
E-manzil: procurement@ebrd.com

Umumiy ma’lumotlar

Aniq so‘rovlar YTTB so‘rovlar shaklidan foydalangan holda berilishi mumkin.

Ekologik va ijtimoiy siyosat (ESP)

YTTB o‘zining “ekologik jihatdan mas’ul va barqaror rivojlantirish” tashabbusini ilgari surishda Ekologik va ijtimoiy siyosat va uning tarkibiy qismi bo‘lgan loyiha talablari (PR) Bank loyihasini amalda qo‘llash tartibini belgilab beradi. ESP va PR tegishli milliy qonunchilik doirasida Bank mijozlarining keng jamoatchilikka axborot berishi va maslahatlashishini ta’minlash, shuningdek manfaatdor tomonlarning xavotirlari va shikoyatlarini, ayniqsa, ekologik va ijtimoiy muammolarni ko‘rib chiqish va hal qilishga yordam beradigan mexanizmni yaratishdagi aniq talablarni o‘z ichiga oladi. Loyihaning ekologik va ijtimoiy risklarni va ta’sirining mohiyati va ko‘lamidan kelib chiqqan holda, zarurat tug‘ilganda, YTTB o‘z mijozlaridan qo‘shimcha ravishda loyihalarning risklarni va ta’sirlari haqida ma’lumotni oshkor qilishni, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan batafsil fikr almashish va muammolar yuzasidan choralar ko‘rilishini talab qiladi.

Bu sohada YTTBning tajribasi bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlar ESPning quyidagi sahifasida keltirilgan.

Ish faoliyatidagi halollik va belgilangan me’yorlarga rioya qilish

YTTBning muvofiqlik nazorati boshqarmasi (OCCO) Bankda mas’uliyatli boshqaruvga ko‘maklashish bilan birga Bank faoliyatining barcha jabhalarida eng yuqori standartlarda ish olib borilishini va barcha jarayonlar ilg‘or xalqaro tajribalarga muvofiq bo‘lishini ta’minlaydi. Bankning barcha mijozlari uchun ularning ish faoliyatidagi halolligini tekshirishdan maqsad, Bank loyihalari uchun qabul qilinishi mumkin bo‘lmagan huquqiy va nufuzga oid risklarga yo‘l qo‘yilmaslikdan iborat. Bank nuqtai nazariga ko‘ra, loyihani dastlabki baholash va tasdiqlash bosqichida muammoli jihatlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish Bank faoliyati

nufuziga putur yetkazmaslikning eng samarali vositasidir. OCCO ushbu profilaktika chora-tadbirlarida muhim ahamiyatga egaligi bilan birga investitsiya qilinganidan keyingi davrda Bankning nufuziga xavf soladigan risklarni nazorat qilishga yordam beradi.

OCCO, shuningdek, YTTB tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar doirasidagi firibgarlik, korrupsiya va lavozimni suiiste'mol qilish bo'yicha ma'lumotni tekshiruvchi mas'ul hisoblanadi. Agar kimningdir Bank ichida yoki undan tashqarida firibgarlik yoki korrupsiya holatlari kuzatilayotganligi haqida gumoni bo'lsa, u muvofiqlik nazorati boshqarmasi boshlig'iga bu holat haqida yozma tarzda compliance@ebrd.com electron manzili orqali xabar qilishi lozim. Barcha bildirilgan daliliy ma'lumotlar tegishli choralar ko'rish uchun OCCO tomonidan ko'rib chiqiladi. Barcha xabarlar, shu jumladan anonym tarzdagi xabarlar ham tekshirib chiqiladi. Bu turdagi xabarlar istalgan tilda, jumladan Bank faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatdagi rasmiy tilda tayyorlanishi mumkin. Bunday ma'lumotlar yaxshi niyatni ko'zlashi maqsadga muvofiqdir.

Axborotdan erkin foydalanish siyosati (AIP)

2020-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan IAP YTTBning strategiyalari, siyosatlari va amaliyotlarini yaxshiroq tushunish va bilishga ko'maklashish uchun manfaatdor tomonlarga ma'lumotlarni ochiqlash bilan birga maslahatlashuvlar tartibini belgilab beradi. YTTB veb-saytidan qanday ma'lumotlar olish mumkinligini bilish uchun Axborotdan foydalanish siyosati sahifasiga o'ting.

Muayyan savollaringizni YTTBning ma'lumot so'rovi orqali yuborishingiz mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM)

Agar jismoniy yoki yuridik shaxslarning ekologik-ijtimoiy sohadagi yoki axborotni oshkor qilish borasidagi xavotirlarini (masalan, loyiha darajasida mijozlar tomonidan yaratilgan shikoyatlar mexanizmi yoki Bankning amaliyot boshqaruvi bilan bevosita o'zaro aloqa qilish orqali) qanoatlantirishga bo'lgan urinishlari samarasiz bo'lsa, ular YTTBning hisobdorlik mexanizmi ya'ni loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi yordamida (IPAM) o'zlarining o'sha xavotirlarini bildirishlari mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM), arizachilarning fikriga ko'ra, zarar yetkazishga ulgurgan yoki kelajakda zarar yetkazishi mumkin bo'lgan loyihaning muammolarini mustaqil ravishda baholaydi. Ushbu mexanizmning vazifalari quyidagilardan iborat: - ekologik-ijtimoiy va axborotni oshkor etish bo'yicha muammolarni hal qilish uchun loyiha ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rnatish va muloqotlarni olib borish; - Bank tomonidan ishlab chiqilgan Ekologik va ijtimoiy siyosat talablariga, shuningdek loyihaga oid tegishli Axborotdan erkin foydalanish siyosati qoidalariga rioya qilinishini baholash; - zarurat tug'ilganda, ushbu mezonlarga rioya qilmaslik holatlarini bartaraf etish, kelgusida Bank tomonidan ularni buzish holatlariga nisbatan ko'riladigan choralarini ko'zda tutish.

IPAM va uning vakolatlari haqida batafsil ma'lumot olish, ko'rib chiqilishi kerak bo'ladigan shikoyatlarni jo'natish uchun Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi vebsaytiga kirishingiz yoki tavsiyalar olish hamda IPAM haqida qo'shimcha ma'lumot olish va shikoyat jo'natish uchun ipam@ebrd.com electron pochta orqali biz bilan bog'lanishingiz mumkin.